

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№10

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 577 sahifa.

2025-yil, 14-oktyabr

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

QAYTA TIKLANUVCHI YASHIL ENERGIYA: BARCHA UCHUN MUHIM MASALA.....	13
Muxiddin Kalonov	
MOLIYAVIY INNOVATSIYALAR: IQTISODIY MOHIYATI, QO'LLANILISHI VA RIVOJLANISHI.....	19
Quliyev Begimqul Melikovich	
SAVDO KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA STATISTIK TAHLIL USULLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	24
Sabirova Oysuluv Shonazarovna	
KORXONANING MEBEL MAXSULOTLARI BOZORIDAGI O'RNINI KENGAYTIRISH USULLARI	30
Musayeva Shoirazimovna	
IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA KO'RSATKICHLARI TIZIMINING FUNKSIONAL JIHATI.....	35
Alabayev Sobitxon	
MAMLAKATIMIZDA MAHSULOTLARNING MUVOFIQLIGINI BAHOLASH AMALIYOTI.....	40
Zakirov Ansabxon Akaidinovich	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЁНЫХ ОБЛИГАЦИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	48
Саидахмедова Аида Мирзаевна	
KORXONALAR FAOLIYATIDA DEBITOR VA KREDITOR QARZDORLIKNI BOSHQARISH	55
Mirzayev Ozod Furkatovich	
AHOLI PUL DAROMADLARI VA HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI EKONOMETRIK TAHLIL.....	59
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
BUDJET RESURSLARI SHAKLLANISHIDA HUDUDNING SOLIQ SALOHİYATINI OSHIRISH VA MOLIYAVIY BARQARORLIK.....	64
Yuldashev Adhamjon Axadjonovich	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY RIVOJLANISHI TUSHUNCHASIGA NAZARIY YONDASHUVLAR.....	69
Muydinov Xusniddin Nuriddin o'g'li	
МЕТОДИКА УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ ПОТОКАМИ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА	73
Минутдинова Лилия Тагировна, Машарипов Озод Алимович	
ГАРМОНИЗАЦИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ СТАНДАРТОВ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН В СООТВЕТСТВИИ С МСФО	78
Абдужалилова Дилноз Абдусаттаровна	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA SMART TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARBLIGI	84
Sobirjonov Muxiddin Toxirjon o'g'li	
TO'LOVGA QOBILIYATSIZLIK HOLATIDAGI KORXONALARDA TUGATISH BALANSINI TUZISH.....	90
Nabiyev Gofurjon Nosirjon o'g'li	
O'ZBEKISTON SANOATINING "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TAYOTGANLIGI: IMKONIYATLAR VA CHEKLOVLAR	96
Habibullayev Oybek Asliddin o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOT KONTSEPTSIYASINING EVOLYUTSIYASI VA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR.....	102
Allayarov Suxrob Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI CHET EL INVESTITSIYALARINING MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI	107
Raxmatov Adxam Itolmasovich, Boynazarova Matluba Xatamovna	



HUDUDIY IJTIMOY TENGLIK VA KAMBAG'ALLIKNI YUMSHATISHDA MEHNAT RESURLARI OMILLARI.....	114
Durumov Temur G'olibovich	
TRANSPORT TARMOG'I VA MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY TARMOQLARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIKNI MODELASHTIRISH (SURXANDARYO VILOYATI MISOLIDA)	121
Turayev Baxtiyor Ergashevich, Aymatov Sirojiddin To'raqul o'g'li	
РОЛЬ ЭНЕРГЕТИКИ В ФОРМИРОВАНИИ УСТОЙЧИВОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.....	134
Нигматуллаева Гулчехра Нуруллаевна	
O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM BOZORINING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI VA UNDA SIFAT MENEJMENTINING ROLI.....	139
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA'RIDAN FOYDALANUVCHILARGA SOLIQ SOLISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	145
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o'g'li	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TURIZM INDUSTRIYASIDA INNOVATSION BIZNES-MODELLAR.....	151
Shaxinabonu Choriyeva	
AVTOTRANSPORT – EKSPEDITSIYA XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING KONTSEPSIYASI	157
Ergasheva Mukhabbat Abdusamatovna	
“YASHIL” ENERGIYA ISHLAB CHIQUVCHI KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	163
Toshtemirov To'liqin Toirjonovich	
DAVLAT IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING ROLI VA UNI KUCHAYTIRISH MEKANIZMLARI.....	166
O. Nurmuradov	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI BANK TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH ASOSLARI	171
Meyliqulov Shaxboz Xolmamat o'g'li	
СВЯЗНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ И РЕГИОНАЛЬНЫХ СТРАТЕГИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ.....	176
Ташматов Гайрат Ровшанович, Содиков Авазбек Мадаминович	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI TURIZM SOHASINI RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	183
Zarikeyeva Miyasar Maratovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH TENDENSIYASI.....	187
Saidrahmatova Zuhaxon Saidazim qizi	
O'ZBEKISTON KONCHILIK SANOATI KORXONALARIDA INVESTITSION JARAYONLARNI BOSHQARISH VA INNOVATSION XAVFLARNI KAMAYTIRISH STRATEGIYALARI	192
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
O'ZBEKISTONDA QULAY INVESTITSIYA MUHITINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI.....	196
Xuramov Zafar Rajabaliyevich	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA XOMASHYO TA'MINOTI BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING XORIJ DAVLATLAR TAJRIBASI.....	201
Zakirov Abduazim Abdurashidovich	
НОВЫЙ ЭТАП ПРИМЕНЕНИЯ РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ В ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....	206
Махкамов Ибраим	
O'ZBEKISTONDA SUG'URTA BOZORINING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI.....	213
Kushmuradov Oman, Ismoilov Sherzod Ismoil o'g'li	
GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA MILLIY IQTISODIYOT NAZARIYASI.....	217
Mo'ydinov Xurshidbek Abdullayevich	
DORIVOR O'SIMLIKLARNI QAYTA ISHLASHNING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARI	221
Usmonov Mirg'ulom Xoshim o'g'li	



BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA YERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILASHTIRISH (XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI MISOLIDA)	227
Nasrulloev Hayotjon Xabibulloevich	
НЕЙРОИНТУИТИВНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ЕГО РОЛЬ В УПРАВЛЕНИИ РИСКАМИ В БИЗНЕСЕ.....	233
Ягудин Дмитрий Рустамович	
RESURLARNI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI VA ULARNING MILLIY SOLIQ TIZIMIDA QO'LLASH MASALALARI	240
Nasimdjanoov Yunusjon Zoxidovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI UCHUN QO'LLANILAYOTGAN SOLIQQA TORTISH MEXANIZMLARI	246
Akbarov Akramjon Ibragimzhonovich	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA "YASHIL" MARKETINGNI JORIY ETISHNING DOLZARB JIHATLARI	250
Bazarova Fayyoz Tuxtamurodovna	
INSON KAPITALI VA IQTISODIYOTNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI.....	255
Muzaffar Raximov	
UY-JOY KOMMUNAL XO'JALIGINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	259
Odamboyev Oybek Ravshanbek o'g'li	
INTERNATIONAL ORGANIZATIONS' APPROACHES TO ATTRACTING INVESTMENT IN HUMAN CAPITAL	268
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
RAQAMLI PLATFORMALAR ORQALI KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	273
Vohobov Hikmatillo Ma'mirjon o'g'li	
ФОРСАЙТ И ЭКОНОМИЧНЫЕ ИННОВАЦИИ КАК ДРАЙВЕРЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ТОРГОВЛИ САМАРКАНДА	280
Тохинова Гуллола Миркамолевна	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI BOSHQARISHDA KASB-HUNAR TA'LIMI BITIRUVCHILARINING O'RNI	287
Toshpulatov Sherzod Xaydarkulovich	
DIGITAL TECHNOLOGIES IN ECOTOURISM: INNOVATIVE STRATEGIES FOR ADVANCING GREEN TOURISM	292
Barno Erkayeva	
AGROTURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	296
Baymuradova Iroda Shermamatovna, Mardonova Zarifa Numonjonovna	
DAVLAT BUDJET NAZORATI TIZIMINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	301
B.Sh.Mirzayev	
YOSHLAR BANDLIGIDA KO'NIKMALAR NOMUTANOSIBLIGI MUAMMOLARI VA YECHIMLARI.....	307
Raxmatxo'jayev Axrorxo'ja Akmal o'g'li	
TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARINING EKSPORT SALOHİYATINI TAHLIL QILISH VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI BAHOLASH.....	311
Oqboyev Alisher Rasuljanovich	
РЕИНЖИНИРИНГ БИЗНЕС-ПРОЦЕССОВ И ИХ РОЛЬ В РАЗВИТИИ БАНКОВСКОГО БИЗНЕСА.....	317
Рахимходжаева Нодира Саидрахаловна	
QISHLOQ XO'JALIGI TA'MINOT ZANJIRI JARAYONLARINING HOZIRGI HOLATINI TAHLIL QILISH.....	323
Ermonov Farrux	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI SHAKILLANTIRISH JARAYONIDA MOLİYAVIY NAZORATNI INNOVATSION TA'LIM YO'NALISHLARINI YO'LGA QO'YISH ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	329
Turg'unov Bahtiyor Nuriddinovich	



MARKAZIY OSIYODA SUV RESURSLARINI BOSHQARISH VA HAMKORLIKNING DOLZARB MASALALARI	334
Amanbaev Amanali Orazbaevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA YANGI TURDAGI LOGISTIKA XIZMATLARINING USLUBIY ASOSLARI.....	338
Z. Teshayev	
O'ZBEKISTON AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARI SOHASINING AMALDAGI HOLATINI TAHLIL QILISH.....	343
Suyunov Asror Baxtiyorovich	
KORPORATIV BOSHQARUVDA LEADERSHIP 4.0 TAMOYILLARINI JORIY ETISH SAMARADORLIKNI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	349
Ismailov Allayor Rashidovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH MASALALARI	355
Yusupov Farxod Adamboyevich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI O'RNI VA UNI RIVOJLANTIRISHNI USTUVOR YO'NALISHLARI	359
Abdullaeva Nilufar Javdat qizi	
MINTAQADA SANOAT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHNING SOLISHTIRMA EKONOMETRIK MODELLARI (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)	363
Saatmurotov Shohrux Zafar o'g'li	
O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR	369
Abdurazaqov Jasur Abdunasimovich	
RAQAMLI PLATFORMALAR YORDAMIDA NORASMIY VA YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHNING QO'SHIMCHA IMKONIYATLARI TO'G'RSIDA.....	374
Nasrullayev Hikmatullo Habibulloyevich	
O'ZBEKISTONDA KICHIK VA O'RTA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH MAQSADIDA "XIZMATLAR IPOTEKASI" MOLIYAVIY INSTRUMENTLARINI AMALIYOTGA JORIY QILISH MASALALARI	379
Uskenbayeva Dilnoza Boxodir qizi	
ЭКОНОМИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ КАПЕЛЬНОГО ОРОШЕНИЯ ПРИ ВОЗДЕЛЫВАНИИ ЛУКА В ДЖИЗАКСКОЙ ОБЛАСТИ.....	384
Суюнов Шохзодбек Мурод угли	
XORIJIY DAVLATLAR SANOAT IQTISODIYOTIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH TAJRIBASI (YAPONIYA, KOREYA VA GERMANIYA MISOLIDA)	389
Mansurova Sayyora Baxtiyor Kizi	
KORXONALARDA ISHLAB CHIQUV XARAJATLARI HISOBGA OLIISHDA XORIJ TAJRIBASINI QO'LLASH	395
Raxmatov Baxriddin Baxtiyor o'g'li	
PECULIARITIES OF THE IRRIGATION WATER DELIVERY PAYMENT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	399
Muminov Sherzod Kholmirzaevich	
DIGITALIZATION OF AGRICULTURAL PRODUCTS FOR EXPORT	404
Azimov R.B.	
AHOLI JON BOSHIGA UMUMIY DAROMADLAR HAJMINI TREND MODELLAR ASOSIDA PROGNOZLASH	409
Xolto'rayev Islom Ilhomovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA YANGI BANDLIK SHAKLLARI.....	416
Sayipov Begzod Rahimovich	
TIJORAT BANKLARINING YANGI DAVR SHAROITIDA MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASH USULLARI VA INDIKATORLARI	422
Sadikov Iskandar Gayratovich	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINING SAMARADORLIGINI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI	427
Ibrohimov Davronbek Muhammadi o'g'li	



MAHALLIY BUDJET SOLIQLI DAROMADLARI BAZASI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQLAR TA'SIRCHANLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	433
Isoqov Zafarjon Zokirjonovich	
TOSHKENT SHAHRIDAGI YIRIK SOLIQ TO'LOVCHILARNING SOLIQ QARZDORLIGI TAHLILI	438
Soipov Boburmirzo Nosirjon o'g'li	
РОЛЬ ЖИЛИЩНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В СИСТЕМЕ КОМПЛЕКСНОГО РАЗВИТИЯ ТЕРРИТОРИЙ МЕЗОУРОВНЯ	446
Далиев Ахтам Шарафутдинович	
TO'QIMACHILIK SANOAT KORXONALARIDA INSON RESURLARINI BOSHQARISHDA XORIJ TAJRIBALARINING ZARURLIGI	454
Abdullayev Dostonbek G'ofurjon o'g'li	
TURISTIK KLASSTERLARNING NAZARIY ASOSLARI VA ULARNING HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI	458
Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA RESURS TA'MINOTI BOSHQARUVINING NAZARIY KONSEPSIYALARI VA MODELLARI	462
Arziqulova Oybar chin Eshquvat qizi	
XIZMATLAR SEKTORIDA RAQAMLI INNOVATSIYALAR VA MIJOZLAR EHTIYOJLARINI QONDIRISH MEKANIZMLARI	467
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ ПОДГОТОВКИ КАДРОВ В РАЗВИТИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА	472
Базаров Бердымурад Улугмуродович, Атавуллаева Саида Джумабекмуродовна	
TURIZM SOHASIDA KADRLAR SALOHİYATINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMI	478
Ho'jaqulov Bobur Rustam o'g'li	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLATNING RO'LI	483
Nabiyeva Muxabbat Djabirxanovna	
"HOW GREEN INVESETMENTS CAN EFFECT ON ECONOMIC GROWTH IN DEVELOPING COUNTRIES"	485
Farangiz Ma'rufjonovna Pirmatova	
TIJORAT BANKLARIDA UZOQ MUDDATLI RESURLAR MANBALARI VA ULARNING HAJMINI OSHIRISHNING ZARURIYATI	493
Abduraxmonov Akmal Nurmat o'g'li	
GLOBAL BOSHQARUV VA BARQAROR RIVOJLANISHDA YASHIL TEXNOLOGIYALARNING ROLI	498
M.Sh. Tolipov	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ	504
Буранбаева Шоира Рустамовна	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA PIYOZ YETISHTIRISHDA TOMCHILATIB SUG'ORISHNI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	508
Suyunov Shohzodbek Murod o'g'li	
YENGIL SANOAT KORXONALARINING RIVOJLANISHIGA BOSHQARUV MADANIYATIDAN FOYDALANISHNING TA'SIRI	513
Aknazarova Zebiniso Bagdadovna	
ISHLAB CHIQRISHNI DIVERSIFIKATSIYALASH SHAROITIDA KORPORATIV BOSHQARUVNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZM SAMARADORLIGINI ANIQLASH USULLARI	518
Qurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH VA JOYLASHTIRISHNING IQTISODIY VA TASHKILIY ASOSLARI	524
Salimov Burxon Abubakirovich	
"YASHIL" IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH VA UNDA ENERGIYADAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	530
Berdiyeva Aziza G'anisher qizi	



SIRKULAR IQTISODIYOTDAN KORXONA VA TADBIRKORLAR MANFAATLARI	535
Sodikov Zokir Rustamovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK SOHASIDA ME'YORIY-HUQUQIY BAZANI ISHLAB CHIQISH	541
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Ubaydullayev Toxirjon Abdullajanovich	
MINTAQA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI CHAKANA SAVDOSIDA SHADOW WAREHOUSE MODELIGA ASOSLANGAN YETKAZIB BERISH TIZIMINI JORIY QILISH	548
Ibrayimova Dilnoza Abdisherpovna	
XIZMATLAR SAVDOSI SOHASIDA O'ZBEKISTONNING XALQARO HAMKORLIK IMKONIYATLARI	555
Qodirjonov A.M.	
TO'QIMACHILIK SANOATINI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH KONSEPSIYASINI SHAKLLANTIRISH USLUBIYOTI	559
Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi	
ГЛОБАЛЬНЫЕ ТРЕНДЫ СМАРТ-ТУРИЗМА И ИХ ПРИМЕНИМОСТЬ К КУЛЬТУРНОМУ НАСЛЕДИЮ УЗБЕКИСТАНА	564
Салихбаев Нурсултон Равшанович	
IJTIMOIIY HIMOYA TIZIMI VA IJTIMOIIY TIBBIY XIZMATLAR O'ZARO BOG'LIQLIGINING NAZARIY ASOSLARI	572
Shanazarov Farrux Shodiyorovich	



IJTIMOIIY HIMOYA TIZIMI VA IJTIMOIIY TIBBIY XIZMATLAR O'ZARO BOG'LIQLIGINING NAZARIY ASOSLARI

Shanazarov Farrux Shodiyorovich

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
ijtimoiy himoya milliy agentligi
Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun
tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish
boshqarmasi yetakchi mutaxassisi

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimi va ijtimoiy tibbiy xizmatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning nazariy asoslari yoritilgan. Tadqiqotda ijtimoiy-iqtisodiy, institutsional va ijtimoiy risk yondashuvlari asosida ijtimoiy himoya tizimining ilmiy modeli shakllantirildi. Nogironligi bo'lgan shaxslar misolida ijtimoiy xizmatlar qamrovi va aholi ehtiyojining o'sishi tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ijtimoiy himoya va tibbiy xizmatlar tizimlarining integratsiyasi inson kapitalini rivojlantirish va aholi farovonligini ta'minlashning muhim omili ekanligi asoslandi. Maqolada raqamli boshqaruv, davlat-xususiy sheriklik va mahalla darajasidagi inklyuziv xizmatlarni rivojlantirish bo'yicha amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy himoya, ijtimoiy tibbiy xizmatlar, inson kapitali, raqamli boshqaruv, davlat-xususiy sheriklik, integratsiya, inklyuziv xizmatlar.

Abstract: The article examines the theoretical foundations of the interrelation between the social protection system and the social medical service system in Uzbekistan. Based on socio-economic, institutional, and social risk approaches, a scientific model of the social protection system has been developed. Using the example of persons with disabilities, the study analyzes the growth of social service coverage and population needs. The results demonstrate that the integration of social protection and medical service systems is a crucial factor for human capital development and overall social welfare. The paper provides practical recommendations for expanding digital governance, strengthening public-private partnerships, and establishing inclusive centers at the community (mahalla) level.

Key words: social protection, social medical services, human capital, digital governance, public-private partnership, integration, inclusive services.

Аннотация: В статье раскрываются теоретические основы взаимосвязи системы социальной защиты и системы социальных медицинских услуг в Республике Узбекистан. На основе социально-экономического, институционального и теории социальных рисков сформирована научная модель системы социальной защиты. На примере лиц с инвалидностью проведён статистический анализ потребностей населения и объёма предоставляемых услуг. Результаты исследования показали, что интеграция систем социальной защиты и медицинских услуг является ключевым фактором развития человеческого капитала и обеспечения благосостояния населения. В работе предложены практические рекомендации по развитию цифрового управления, государственно-частного партнёрства и инклюзивных центров на уровне махалл.

Ключевые слова: социальная защита, социальные медицинские услуги, человеческий капитал, цифровое управление, государственно-частное партнёрство, интеграция, инклюзивные услуги.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy himoya davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning asosiy maqsadi fuqarolarning munosib turmush sharoitlarini yaratish va aholining zaif qatlamlarini qo'llab-quvvatlashdan iborat. So'nggi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish, davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'lar hajmini oshirish, qo'shimcha resurslarni jalb qilish hamda ijtimoiy yordam



dasturlarini kengaytirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, kam ta'minlangan oilalarni aniqlash va ularga manzilli yordam ko'rsatish maqsadida "Ijtimoiy himoya yagona reestri" axborot tizimining joriy etilishi ijtimoiy xizmatlarni raqamlashtirish va samaradorligini oshirish yo'lida muhim qadam bo'ldi. Bu tizim fuqarolarning ehtiyojmand qatlamlarini aniqlashni tezlashtirib, yordamning adolatli va shaffof taqsimlanishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi (2022—2026-yillar)"da belgilangan vazifalardan kelib chiqib, aholining ijtimoiy himoya olish huquqlarini ta'minlash va davlat ijtimoiy xizmatlarini samarali muvofiqlashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-175-son¹ Farmoni bilan tasdiqlandi.

Ushbu hujjat aholining zaif qatlamlarini - keksalarni, nogironligi bo'lgan shaxslarni va ko'p bolali oilalarni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratadi. Mamlakatda ijtimoiy himoya faqat davlat siyosati emas, balki milliy qadriyatlar tizimining ham muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Mehr-shafqat, hamdardlik va o'zaro yordam kabi an'analar O'zbekiston xalqining madaniyati va ma'naviyatida chuqur ildiz otgan. Shu bois ijtimoiy himoyaning ilmiy asoslari faqat moddiy yordam tizimini emas, balki fuqarolarning sog'lig'ini saqlash, ta'lim olish va munosib turmush darajasiga erishish imkoniyatlarini ham o'z ichiga oladi. Ijtimoiy himoya — bu aholining turli guruhlarini ijtimoiy va moddiy xavf-xatarlardan muhofaza qilishga qaratilgan huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy chora-tadbirlar majmuidir.

Uning bosh maqsadi — aholi farovonligini doimiy ravishda yaxshilash, turmush sifatidagi tafovutlarni qisqartirish va jamiyatda inson qadrini ta'minlovchi barqaror ijtimoiy muhitni shakllantirishdir. Shu nuqtayi nazardan, ijtimoiy himoya tizimi bilan uzviy bog'liq bo'lgan ijtimoiy tibbiy xizmatlarning rivojlanishi aholi salomatligi, mehnat unumdorligi va iqtisodiy o'sish sur'atlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ular birgalikda inson kapitalini rivojlantirishning asosiy ustuni sifatida jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy farovonlikni ta'minlaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

M.Kepper[4] maqolasida ijtimoiy ehtiyojlarni sog'liqni saqlashga integratsiyalashni implementation science (amalga oshirish fanlari) yondashuvi orqali tahlil qiladi. Muallif klinik amaliyotlarda ijtimoiy yordamni aniqlash, yo'naltirish va ushlab qolishdagi ko'p bosqichli to'siqlar va ularni yengish strategiyalarini sistematik adabiyot sharhi asosida ko'rsatadi; ushbu yondashuv tizimli siyosat va moliyaviy investitsiyalarni talab qilishini ta'kidlaydi. Tadqiqotdan kelib chiqib, ijtimoiy xizmatlarni sog'liq muassasalari bilan rasmiy integratsiyalash siyosatini joriy etish lozim.

J.Gliedt[5] tadqiqotida sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish nazariy modellarini sintez qilib, ularni ijtimoiy himoya tizimlari bilan bog'lash imkoniyatlarini ochib beradi. Scoping-review metodikasi orqali muallif turli konseptual ramkalar va ularning ijtimoiy himoya orqali sog'liq natijalariga ta'sir mexanizmlarini xaritalaydi; xulosada nazariy pluralizm va modellarni amaliy siyosatga tarjima qilish uchun intersektoral tadqiqotlar zarurligi ta'kidlanadi. Shunga ko'ra, ijtimoiy himoya va sog'liq siyosatlarini nazariy jihatdan bog'lovchi amaliy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash zarur.

F.Shahidi va hamkasblari[6] ilmiy ishida ijtimoiy yordam dasturlarining aholining sog'lig'iga ta'sirini yuqori daromadli mamlakatlardagi empirik tadqiqotlar asosida sistematik tahlil qiladi. Mualliflar meta tahlil va sifatli baholash yordamida transferlarning ayrim sog'liq indikatorlarini yaxshilashi mumkinligini ko'rsatadi, biroq baholashlarning metodologik cheklovlari va nishonlash muammolari samaradorlikni aniqlashni qiyinlashtiradi. Tadqiqotdan kelib chiqib, ijtimoiy yordam siyosatlarini sog'liq natijalari bilan bog'laydigan mustahkam monitoring va metodologik standartlar joriy etilishi lozim.

A.Banerjee va hamkorlari[7] maqolasida ijtimoiy himoya dasturlarini rivojlanayotgan mamlakatlarda loyihalash va baholashga bag'ishlangan keng qamrovli qayta ko'rib chiqishni taqdim etadi. Metod sifatida empirik tadqiqotlar va eksperimental ishlar sintezi ishlatilgan. Mualliflar maqsadli yondashuv, noan'anaviy identifikatsiya usullari va mahalliy institutlar bilan uyg'unlashtirilgan dasturlar samaradorligini oshirishini ko'rsatadi. Shu sababli, ijtimoiy himoya siyosatlarini mahalliy sharoitga moslab tajriba asosida joriy etish va baholashni kengaytirish zarur.

M.Aung va hamkasblari[8] tadqiqotida xalqaro tashkilotlar (WHO, World Bank va boshqalar) hujjatlari hamda ilmiy adabiyotlarni tahlil qilib, ijtimoiy himoya instrumentlari (cash transfers, in-kind, sug'urta) zaif guruhlarining sog'liq xizmatlariga kirishini qanday yaxshilashini ko'rsatadi. Sistematik adabiyot tahlili asosida mualliflar ijtimoiy himoyaning sog'liqni qamrab olish (UHC) maqsadlariga erishishda muhim vosita ekanligini aniqlaydi. Shuning uchun, ijtimoiy himoya choralari Universal Health Coverage strategiyasiga rasmiy rioya qilgan holda integratsiyalashishi lozim.

¹ <https://lex.uz/docs/-6130265>



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ilmiy tahlil va xulosalarni shakllantirishda bir qator zamonaviy iqtisodiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Jumladan, ilmiy abstraksiya va mantiqiy umumlashtirish, qiyosiy tahlil, ma'lumotlarni tizimlash va guruhlash, monografik tahlil hamda taqqoslash usullari orqali mavzuning nazariy va amaliy jihatlarini yoritildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ijtimoiy himoya tizimi jamiyatda barqarorlikni ta'minlash, aholining turmush darajasini kafolatlash va ijtimoiy xavf-xatarlarni kamaytirishga qaratilgan iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy mexanizmlarni qamrab oladi. Uning nazariy asoslari bir nechta ilmiy yondashuvlar orqali izohlanadi, ular har biri ijtimoiy himoyaning mohiyati va vazifalarini turlicha, ammo o'zaro uyg'un tarzda yoritib beradi.

Birinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy yondashuv ijtimoiy himoyani davlatning qayta taqsimlovchi funksiyasi sifatida talqin etadi. Unga ko'ra, davlat jamiyatda mavjud resurslarni adolatli taqsimlash orqali aholining barcha qatlamlari uchun minimal hayot standartlarini ta'minlashi kerak. Bu yondashuv kambag'allikni qisqartirish, ishsizlikning oldini olish va ijtimoiy tenglikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy himoya bu holda iqtisodiy tizimning barqarorligi va inson kapitalining samaradorligini ta'minlovchi omilga aylanadi.

Ikkinchidan, institutsional yondashuv ijtimoiy himoyani davlat, nodavlat va xususiy sektor tashkilotlarining o'zaro hamkorligi asosida amalga oshiriladigan tizim sifatida ko'radi. Bu yondashuvda ijtimoiy himoya nafaqat davlatning mas'uliyati sifatida, balki butun jamiyatning birlashgan institutsional faoliyati sifatida namoyon bo'ladi. Davlat ijtimoiy siyosatni belgilaydi va moliyalashtirishni ta'minlaydi, nodavlat tashkilotlar fuqarolar manfaatlarini ifoda etadi, xususiy sektor esa ijtimoiy mas'uliyatni amaliy qo'llab-quvvatlaydi.

Uchinchidan, ijtimoiy risk nazariyasi ijtimoiy himoyaning vazifasini fuqarolarning hayot faoliyatida yuzaga keladigan xavf-xatarlarni kamaytirish orqali tushuntiradi. Bu xavf-xatarlarga ishsizlik, kasallik, nogironlik, qarilik, oilaviy yo'qotishlar yoki tabiiy ofatlar kabi omillar kiradi. Mazkur nazariyaga ko'ra, ijtimoiy himoya tizimi bu xavflarning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarini yumshatish orqali aholining turmush barqarorligini ta'minlaydi.

Shuningdek, zamonaviy iqtisodiy nazariyalarda ijtimoiy himoya tizimi inson kapitalini rivojlantirishning asosiy institutsional asosi sifatida ham qaraladi. Bunda ta'lim, sog'liqni saqlash va mehnat bozori siyosatlari ijtimoiy himoya bilan chambarchas bog'lanadi. Masalan, sog'lom va malakali aholi mehnat unumdorligini oshiradi, bu esa mamlakat iqtisodiy o'sishiga turtki beradi.

Ijtimoiy himoya tizimining ushbu uch yondashuvi — iqtisodiy, institutsional va risk nazariyalari — birgalikda qo'llanilganda, ular ijtimoiy siyosatning samaradorligini oshiradi va aholi farovonligini kafolatlaydi. Bunday uyg'un yondashuv ijtimoiy himoya tizimini faqat moddiy yordam vositasi emas, balki inson qadrini ta'minlovchi, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlovchi tizim sifatida shakllantiradi.

Quyidagi jadval O'zbekistonda 2019—2023-yillar davomida nogironligi bo'lgan shaxslar sonining o'zgarishini va yillik o'sish sur'atini ko'rsatadi (1-jadval):

1-jadval. O'zbekistonda 2019—2023-yillar davomida nogironligi bo'lgan shaxslar sonining o'zgarishi²

Yil	Nogironligi bo'lgan shaxslar soni (ming kishi)	O'sish sur'ati (%)
2019	740.7	—
2020	758.3	2.38
2021	797.3	5.14
2022	896.4	12.43
2023	941.9	5.08

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, nogironligi bo'lgan shaxslar sonidagi muttasil o'sish tendensiyasi ijtimoiy xizmatlar talabining ortib borayotganini anglatadi. Bu holat ijtimoiy tibbiy infratuzilmani rivojlantirish zaruratini ko'rsatadi. 2019—2023-yillar mobaynida nogironligi bo'lgan shaxslar soni 740,7 ming kishidan 941,9 ming kishigacha o'sgan, ya'ni 27,2 %ga ko'paygan. Eng yuqori o'sish sur'ati 2022-yilda (12,4 %) kuzatilgan bo'lib, bu pandemiyadan keyingi davrda tibbiy diagnostika imkoniyatlarining kengayishi va hisobga olish tizimining yaxshilanishi bilan izohlanadi. Bu tendensiya ijtimoiy himoya va tibbiy xizmatlar tizimining samarali integratsiyasini talab etadi, chunki nogironligi bo'lgan shaxslar sonining ortishi ular uchun maxsus tibbiy, reabilitatsion va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xizmatlariga bo'lgan ehtiyojni oshirmoqda. Quyidagi jadval 2023-yilda O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarning nogironlik guruhlari bo'yicha taqsimlanishini ko'rsatadi (2-jadval):

² <https://stat.uz/uz/default/choraklik-natijalar/53709-2024#yanvar-dekabr>

2-jadval. O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarning nogironlik guruhlari bo'yicha taqsimlanish³

Nogironlik guruhlari	Shaxslar soni (ming kishi)	Ulush (%)
Nogironligi bo'lgan bolalar	161.9	17.2
I guruh nogironlar	87.3	9.3
II guruh nogironlar	631.5	67.0
III guruh nogironlar	61.2	6.5

2-jadval ma'lumotlari esa nogironlik darajasi bo'yicha xizmatlar tarkibida II guruh nogironlar ulushining ustunligini namoyon etadi. Shu sababli, davlat siyosatida reabilitatsiya va profilaktik xizmatlarni kuchaytirish ustuvor yo'nalish bo'lishi kerak. 2023-yil yakuniga ko'ra, nogironligi bo'lgan shaxslarning asosiy qismini - II guruh nogironlar (67%) tashkil etgan bo'lib, bu 631,5 ming kishiga to'g'ri keladi. Bu holat sog'liq yoki mehnat qobiliyati qisman yo'qotilgan shaxslar sonining yuqori ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, nogironligi bo'lgan bolalar 161,9 ming nafarni yoki umumiy sofning 17,2%ini tashkil etgan, bu esa bolalar salohiyatini tiklash va inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. I va III guruh nogironlar mos ravishda 9,3% va 6,5% ulushni tashkil etib, ular doimiy tibbiy yordam, reabilitatsiya va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xizmatlariga eng muhtoj toifalar hisoblanadi. Umuman olganda, mazkur ma'lumotlar nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ijtimoiy va tibbiy xizmatlarning qamrovini kengaytirish, maxsus infratuzilma va inklyuziv siyosatni rivojlantirish zaruratini tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ijtimoiy himoya va ijtimoiy tibbiy xizmatlar tizimlarining o'zaro bog'liqligi mamlakatda inson kapitalini rivojlantirishning, aholi farovonligini ta'minlashning hamda jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashning asosiy omillaridan biridir. Ushbu tizimlarning uyg'un rivojlanishi faqat fuqarolarning turmush darajasini oshirish bilan cheklanib qolmasdan, iqtisodiy o'sish sur'atlarini tezlashtirish va mehnat bozori samaradorligini ta'minlashga ham xizmat qiladi. O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, raqamli axborot tizimlari, jumladan "Yagona ijtimoiy himoya reestri" va "Ijtimoiy himoya milliy agentligi"ning faoliyati natijasida ijtimoiy xizmatlarning shaffofligi va manzilligi sezilarli darajada oshdi. Bu orqali nogironligi bo'lgan shaxslar, keksalar va ehtiyojmand oilalar uchun ko'mak mexanizmlari takomillashtirildi, byurokratik to'siqlar qisqartirildi va resurslar samarali taqsimlandi.

Biroq amalga oshirilayotgan choralar bilan bir qatorda, ijtimoiy tibbiy xizmatlar tizimining hududiy qamrovini kengaytirish, profilaktika va reabilitatsiya xizmatlarini yanada kuchaytirish zarur. Bu jarayonni ilmiy asoslangan yondashuvlar va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari orqali amalga oshirish dolzarb ahamiyatga ega. O'zbekistonda ijtimoiy himoya va ijtimoiy tibbiy xizmatlar tizimlarini samarali integratsiya qilish, ularning barqaror faoliyatini ta'minlash hamda aholi farovonligini oshirish maqsadida bir qator ustuvor taklif va amaliy tavsiyalar ilgari suriladi.

Birinchidan, integratsiyalashgan boshqaruv modelini yaratish zarur. Ijtimoiy himoya va tibbiy xizmatlar ma'lumotlar bazalarini yagona raqamli platformada birlashtirish aholining ehtiyojmand qatlamlari bo'yicha xolis va tezkor ma'lumotlarni taqdim etish imkonini yaratadi. Bu orqali yordam ko'rsatishdagi takrorlanish, ma'lumotlar ziddiyati va byurokratik kechikishlar kamayib, manzillilik hamda shaffoflik oshadi.

Ikkinchidan, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish ijtimoiy tibbiy xizmatlar tizimini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tibbiy-ijtimoiy markazlarni tashkil etish jarayonida xususiy klinikalar, nodavlat tashkilotlar va xalqaro sheriklar ishtirokini kengaytirish orqali profilaktika va reabilitatsiya xizmatlarini zamonaviy texnologiyalar asosida yo'lga qo'yish mumkin. Bu esa sohaga investitsiyalar oqimini oshiradi va xizmatlar sifatini yaxshilaydi.

Uchinchidan, mahalliy darajada "Inklyuziv markazlar"ni tashkil etish muhim vazifa hisoblanadi. Har bir tuman yoki mahallada nogironligi bo'lgan shaxslar, keksalar va bolalar uchun maxsus reabilitatsiya, psixologik yordam va ijtimoiy moslashuv xizmatlarini ko'rsatuvchi markazlar faoliyatini yo'lga qo'yish inson kapitalini tiklash, ijtimoiy faollikni oshirish hamda aholi o'rtasidagi teng imkoniyatlar muhitini yaratishga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, ijtimoiy tizim samaradorligini oshirish maqsadida raqamli nazorat va baholash tizimini joriy etish talab etiladi. Bu tizim orqali ijtimoiy xizmatlar sifati, foydalanuvchilar qoniqish darajasi va resurslardan foydalanish samaradorligi KPI indikatorlari asosida avtomatik ravishda baholanadi. Natijada boshqaruv qarorlari tezkor va ma'lumotlarga asoslangan holda qabul qilinadi.

Beshinchidan, ijtimoiy tibbiy xizmatlarda kadrlar salohiyatini oshirish dolzarb ahamiyatga ega. Tibbiy va ijtimoiy xodimlar uchun muntazam malaka oshirish kurslarini tashkil etish, axborot texnologiyalaridan

3 <https://stat.uz/uz/default/choraklik-natijalar/53709-2024#yanvar-dekabr>



foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish hamda inklyuziv yondashuv asoslarini amaliyotga joriy etish zarur. Bu mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini kuchaytirib, xizmatlar sifati va aholi ishonchini oshiradi.

Oltinchidan, ijtimoiy innovatsiyalar va grant tizimini joriy etish orqali yangi loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatini yaratish lozim. Nodavlat tashkilotlar, mahalla institutlari va startaplar uchun ijtimoiy tibbiy xizmatlar sohasida innovatsion g'oyalarni amalga oshirishni qo'llab-quvvatlovchi grant dasturlarini joriy etish ahamiyatli bo'ladi. Bu sohaga yangi texnologik yechimlar va ijtimoiy innovatsiyalar kirib kelishiga xizmat qiladi. Nihoyasida, ijtimoiy tahlil markazini tashkil etish zarur. Bu markaz ijtimoiy himoya va tibbiy xizmatlar samaradorligini ilmiy tahlil qilish, davlat dasturlarining ijtimoiy ta'sirini baholash hamda soha bo'yicha strategik tavsiyalar ishlab chiqish bilan shug'ullanishi lozim. Uning faoliyati natijasida qaror qabul qilish jarayonlari ilmiy dalillarga asoslanadi va davlat ijtimoiy siyosati samaradorligi oshadi.

Umuman olganda, mazkur taklif va tavsiyalarni amalga oshirish ijtimoiy himoya va tibbiy xizmatlar tizimlarining o'zaro integratsiyasini chuqurlashtiradi, inson kapitalini rivojlantirish va aholi farovonligini ta'minlashda yangi bosqichni ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF—82-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-6480342>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 10-noyabrdagi "Ijtimoiy himoya yagona reestri" axborot tizimi orqali kam ta'minlangan oilalarni aniqlash va ularga ijtimoiy nafaqalar tayinlash bo'yicha elektron shaklda ariza berishni joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 596-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-6663873>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 21-oktyabrdagi "Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 654-son qarori. <https://lex.uz/docs/-5688101>
4. Kepper, M. (2024). Integrating Social Needs into Health Care: Implementation Science Perspectives. Annual Review of Public Health.
5. Gliedt, J. A. (2023). A Description of Theoretical Models for Health Service Utilization: Implications for Linking Social Protection and Health. Journal (scoping review).
6. Shahidi, F. V., Ramraj, C., Sod-Erdene, O., Hildebrand, V., Siddiqi, A. (2019). The impact of social assistance programs on population health: a systematic review of research in high-income countries. BMC Public Health, 19:2.
7. Banerjee, A., Hanna, R., Olken, B. A., Sverdlin Lisker, D. (2023). Social Protection in the Developing World (review manuscript). Massachusetts Institute of Technology working paper / review.
8. Aung, M. N.; Yuasa, M.; Fujita, M.; Yokobori, Y. (2023). Roles of Social Protection to Promote Health Service Coverage among Vulnerable People toward Achieving Universal Health Coverage: A Literature Review of International Organizations. International Journal of Environmental Research and Public Health
9. Tursunov, J. (2023). O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimini istiqbolda barqaror amalga oshirilishini ta'minlash yo'llari. Iqtisodiyot va ta'lim, 24(1), 327–333. https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss1/a50
10. Tursunov, J.P., & Jumabaeva, K.B. (2023). O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimi: bugungi holat va rivojlanish istiqbollari. Fundamental tadqiqotlar, №1, 25–33-betlar.
11. Борисенко, Н.Ю. (2007). Построение национальной системы пенсионного обеспечения: теория и практика. Финансы и кредит, No17, С. 54-65.
12. Sholdarov, D., & Tursunov, J. (2018). Improvement of the system of state pension provision in Uzbekistan. Scientific Journal "Finance", 1st Issue, Vol. 107.
13. Pulatovich, T.J. (2023). Ways to reform the pension system based on foreign experience. International Journal of Economic Perspectives, 17(1), 64–71
14. Shodieva, G. M., & Pardaeva, O. M. PROBLEMS OF FAMILY ENTREPRENEURSHIP DEVELOPING AND INCREASING EMPLOYMENT AND INCOME OF THE POPULATION AND REDUCING POVERTY. GWALIOR MANAGEMENT ACADEMY, 23, 210.
15. Пардаев, М. Қ., & Шодиева, Г. М. (2001). Оила хўжалиги иқтисодиёти ва тадбиркорлиги. Самарқанд, СамКИ, 151.
16. Shadieva, G. M. (2022). SOCIO-ECONOMIC CONCEPT OF "FAMILY ECONOMY". Confrencea, 1(1), 239-243.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
